

“Dictogloss” texnikasi orqali o‘rta darajadagi talabalarda lug‘at boyligini oshirish

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ingliz tili funksional leksika kafedrasida o‘qituvchisi
Turdaliyeva Durдона Adhamovna*

Anotatsiya. Hozirgi kun zamonaviy o‘qitish jarayonlarida qo‘llaniladigan texnikalardan biri bo‘lgan “Dictogloss” texnikasiga tarif va tasnif, yo‘nalishga oid umumiy tushunchalar, qo‘llanilish usullari va natijalari xaqida so‘z yuritadigan ushbu maqola, ayni usulning bugungi kundagi qo‘llanilishini yoritadi. Tillarni o‘qitishda turli texnikalar mavjud bo‘lib, xar biri o‘zining ayni natija beradigan yo‘nalishlari mavjud. Dictogloss metodi xam ulardan biri xisoblanib tillarning baarcha aspektlarida birdek foydali va natijali xisoblanadi.

Kalit so‘zlar: dictogloss, usul, texnika, aspect, making notes, formative baholash

Dictogloss – bu til o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv va hamkorlikka asoslangan usul bo‘lib, ushbu texnika o‘quvchilarga eshitish, yozish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek dars jarayonida talabalarning faolligini oshiradigan usullardan biri xisoblanadi. Bu texnikaning asosiy xususiyatlari tilning turli aspektlarida turlicha talqinda namoyon bo‘ladi¹¹⁰. Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi sifatida quyidagicha tasniflash mumkin; O‘qituvchi qisqa matnni ovoz chiqarib o‘qiydi, o‘quvchilar diqqat bilan tinglaydilar va muhim fikrlarni eslatmalarga (making notes) yozadilar. Tinglov tugagach, o‘quvchilar juftliklar yoki kichik guruhlarda o‘z eslatmalaridan foydalanib, matnni qayta tiklaydilar. Har bir guruh o‘z versiyasini yozadi, grammatikani va leksikani e‘tiborga olib, matnni mantiqiy va izchil ravishda qayta ifodalaydi. O‘qituvchi guruhlar o‘z matnlarini taqdim etganda muhokama o‘tkazadi va asl matn bilan taqqoslaydi. Bundan tashqari, o‘quvchilar og‘zaki nutqni tushunish qobiliyatini oshiradilar va qabul qilingan ma‘lumotlarni qaytadan (retell) qilish jarayonida og‘zaki nutqlarini xam rivojlantiradilar. Qo‘shimcha tarzda, talabalarda guruhda ishlash qobiliyatini xam rivojlantirishga yordam beradi, guruh ishida fikr almashish va muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Dictogloss texnikasi o‘quvchilarga til ko‘nikmalarini rivojlantirishda, shuningdek, ijtimoiy va madaniy bilimlarni oshirishda samarali usuldir. Ushbu metodni o‘z darslarida qo‘llagan o‘qituvchilar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga va o‘zaro hamkorlikka undashlari mumkin¹¹¹.

Mazkur texnikani qo‘llashda ko‘pincha ba‘zi qiyinchiliklar yuzaga kelgan, misol qilib oladigan bo‘lsak, turli darajadagi o‘quvchilarda ishlash jarayonida til bilish darajalari xal xil bo‘lgan talabalar uchun ayni bir darajadagi material tanlash bu guruxdagi baland darajada bilimga ega talabalar va boshlang‘ich darajadagi talabalarga umumiy bitta material mos kelmasligi va natijada mavzuni tushunmaslik yoki oddiy darajadagi darsdan zerikish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari ushbu jarayon an‘anaviy usullarga nisbatan ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin. Ba‘zi o‘quvchilar eslab qolish yoki o‘z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Hozirgi kunda dictogloss texnikasini amalga oshirishda raqamli ta‘lim resurslari va platformalaridan keng foydalanilmoqda. O‘qituvchilar onlayn matnlarni tanlab, video yoki audio materiallar orqali tinglash jarayonini osonlashtirishi mumkin. Bu o‘quvchilarga uydan chiqmasdan ham ta‘lim olish imkoniyatini beradi. Ko‘plab o‘qituvchilar dictoglossni interaktiv darslar bilan birlashtirishmoqda. Masalan, o‘quvchilar matnni qayta tiklayotganda raqamli vositalar (Google Docs, Padlet) orqali birgalikda ishlashlari mumkin. Bu esa hamkorlikni kuchaytiradi va ijodiy fikrlashni

¹¹⁰ Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. (2 ed.). New York: Longman

¹¹¹ Kowal, M. & Swain, M. (1997). From semantic to syntactic processing: How can we promote it in the immersion classroom? In R. Johnson & M. Swain (Eds.) Immersion Education: International Perspectives (pp. 284-309). New York: Cambridge University Press.

ragʻbatlantiradi. Dictogloss texnikasi ikki tilni oʻrganish jarayonida ham samarali ishlatilmoqda. Oʻqituvchilar bir matnni ikki tilda tinglab, oʻquvchilarga ikki tilni bir vaqtning oʻzida oʻrganishga yordam berishmoqda. Bu yondashuv, oʻz navbatida, madaniy farqlarni anglashni kuchaytiradi. Oʻqituvchilar dictoglossni turli darajadagi oʻquvchilar uchun moslashtirishda yangi strategiyalarni ishlab chiqishmoqda. Masalan, baʼzi guruhlar uchun matnlarni oddiy lashtirish yoki koʻproq vizual materiallar (rasmlar, diagrammalar) qoʻshish orqali murakkablik darajasini kamaytirish.

Dictogloss jarayonida oʻquvchilarning yutuqlarini baholash uchun formativ baholash usullari keng qoʻllanilmoqda. Oʻqituvchilar oʻquvchilarning yozma va ogʻzaki muloqotini tahlil qilib, individual va guruh darajasida qayta aloqa berishmoqda. Quyida Dictogloss texnikasidan foydalanish uchun bir qancha misolar keltiramiz¹¹²:

Oʻqish va Tinglash; matn: Oʻquvchilar bir qisqa hikoyani tinglaydilar, masalan, "Qizil Shapka". Oʻqituvchi matnni oʻrtacha tezlikda oʻqiydi.

Jarayon:

- Oʻquvchilar hikoyani tinglashadi va muhim fikrlarni eslatmalarga yozadilar.
- Soʻng, juftliklarda oʻz eslatmalaridan foydalanib hikoyani qayta tiklaydilar.

Madaniyatlararo Muloqot; matn: Oʻqituvchi turli madaniyatlar haqida qisqa matn oʻqiydi, masalan, "Bayramlar va Anʼanalar".

Jarayon:

- Oʻquvchilar eshitganlarini eslatmalarga yozadilar.
- Guruhlarda, har bir guruh oʻz madaniyatlariga oid bayramlarni kiritgan holda matnni qayta tiklaydi.

Ijtimoiy Mavzu; matn: Oʻqituvchi ijtimoiy muammolar, masalan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish" haqidagi matnni tinglatadi.

Jarayon:

- Oʻquvchilar eslatmalar yozadilar.
- Guruhlar birgalikda atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha oʻz fikrlarini va yechimlarini taqdim etadigan matnni tiklaydilar.

Oʻqitish Strategiyalari; matn: Oʻqituvchi oʻqitish usullari haqida qisqa matn oʻqiydi.

Jarayon:

- Oʻquvchilar metodlarni va ularning foydalarini eslatmalarga yozadilar.
- Guruhda, har bir guruh oʻz usulini tanlab, oʻqitishning qanday foyda keltirishini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. (2 ed.). New York: Longman

2. Campbell, B., Farrow, M. & Riley, S. [n/DLiT/2004/13DLT/Teach Methodologies.htm](http://n/DLiT/2004/13DLT/Teach_Methodologies.htm). (Diunduh 22 Oktober 2017)

3. Kowal, M. & Swain, M. (1997). From semantic to syntactic processing: How can we promote it in the immersion classroom? In R. Johnson & M. Swain (Eds.) *Immersion Education: International Perspectives* (pp. 284-309). New York: Cambridge University Press.

4. Mitra, S. (2003). Improving English pronunciation: An automated instructional approach. *Information Technologies and International Development Journal*, 1(3), 39-46.

5. OʻMalley, J. M., & Chamot, A. U. (1990). *Learning Strategies in Second Language Acquisition*. Cambridge: Cambridge University Press. (2004). "Development learning & teaching"<http://ehlt.flinders.edu.au/educati>

x

¹¹² Mitra, S. (2003). Improving English pronunciation: An automated instructional approach. *Information Technologies and International Development Journal*, 1(3), 39-46.